



XALQARO MOLIYA BOZORIDAN REAL SEKTORG A INVESTISIYALAR JALB QILISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Boyev Bekzodjon Jo'raqul o'g'li

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrası dotsenti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-0069-8739

Shavkatov Behruz Rustam o'g'li

Bank ishi fakulteti 3-kurs talabasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: shavkatovbehruz02@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0780-5724

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE AND THEORETICAL-LEGAL FOUNDATIONS OF ATTRACTING INVESTMENTS FROM THE INTERNATIONAL FINANCIAL MARKET TO THE REAL SECTOR

Boyev Bekzodzhan Zhurakul Oglu

Doctor of philosophy in economics (PhD)

Associate Professor, Department of corporate finance and securities

Tashkent State University of Economics

ORCID: 0000-0003-0069-8739

Shavkatov son of Behruz Rustam

3rd year student of the Faculty of

Doctor of philol: shavkatovbehruz02@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0780-5724

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro moliya bozori va real sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi o'rni, ahamiyati va ta'siri kompleks ilmiy tahlil etilgan. Xalqaro moliya bozori bugungi globallashuv sharoitida kapital oqimlarining asosiy generatoriga aylanib, milliy iqtisodiyotlar, xususan real sektorning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada global moliyaviy resurslarning real sektorga yo'naltirish mexanizmlari, investitsiya oqimlarining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi va mehnat unumdorligining oshishiga

qo'shayotgan hissasi chuqur o'rganiladi.

Tadqiqotda xalqaro kredit liniyalari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalari va xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokining real sektorni moliyalashtirishdagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, xalqaro moliya tashkilotlarining (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) iqtisodiyotni raqamlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, energetik samaradorlikni oshirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashdagi roli alohida yoritilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha shakllangan huquqiy-institutsional baza, biznes muhiti liberallashtirilishi, soliq va bojxona imtiyozlari, investorlarni himoya qilish kafolatlari hamda so'nggi yillardagi islohotlarning samaradorlik darajasi atroflicha baholangan. Xususan, investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va investitsion loyihalarni sug'urtalash mexanizmlarining takomillashuvi tizimli o'rganiladi.

Shuningdek, maqolada rivojlangan mamlakatlar — AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarda investitsion siyosatni muvaffaqiyatli tashkil etish amaliyotlari, kapital oqimlarini jalb etishdagi ilg'or yondashuvlar va innovatsion strategiyalar tahlil qilinib, ular asosida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun moslashtirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Takliflar real sektorning kapital sig'imini oshirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish hamda xalqaro investitsion hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** xalqaro moliya bozori, kapital, investitsiya, iqtisodiyot, milliy hisoblar tizimi, savdo, marjinalizm, marksizm.*

Abstract:

This article provides a comprehensive scientific analysis of the interrelationship between the international financial market and the real sector, as well as their role, significance, and impact on contemporary economic development processes. In the context of globalization, the international financial market has become a major generator of capital flows, contributing to the

expansion of investment opportunities for national economies, particularly within the real sector. From this perspective, the article examines the mechanisms through which global financial resources are directed toward the real sector, the influence of investment flows on sustainable economic growth, the expansion of production capacity, and the increase in labor productivity.

The study analyzes the role of international credit lines, foreign direct investment, portfolio investments, and the participation of international financial institutions in financing the real sector. Special attention is given to the contribution of major international financial organizations — including the World Bank, the Asian Development Bank, and the European Bank for Reconstruction and Development — to economic digitalization, infrastructure modernization, energy efficiency improvement, and the support of innovative projects.

The article also evaluates Uzbekistan's legal and institutional framework for attracting foreign investment, the liberalization of the business environment, tax and customs incentives, investor protection guarantees, and the effectiveness of recent reforms. Furthermore, improvements in creating favorable conditions for investors, the development of public-private partnerships, the expansion of free economic zones, and advancements in investment insurance mechanisms are systematically assessed.

The research compares successful investment policy practices in developed countries such as the USA, Japan, South Korea, Germany, and Singapore. Based on their advanced approaches and strategies for attracting capital flows, the article proposes recommendations adapted to the economic conditions of Uzbekistan, focusing on increasing real-sector capital capacity,

accelerating technological modernization, developing high value-added industries, and enhancing international investment cooperation.

Key words: *International financial market; capital; investment; economy; national accounts system; trade; marginalism; Marxism.*

KIRISH

Bugungi kun iqtisodiyotida real sektor singari moliyaviy sektor ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy iqtisodiy taraqqiyotida va ularning bugungi yuqori darajaga erishishlarida moliya bozorining o'zni naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan ham bilishimiz mumkin. Bu holatda real sektorni moliyaviy ta'minlash, bo'sh pul mablag'larini ishlab chiqarishga yo'naltirish, yangi sohalarni o'zlashtirish, aholi daromadlarini moliyaviy aktivlar orqali oshirish kabilarni alohida ta'kidlash muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi" deb takidlab o'tganlari ham bejizga emas [1].

Ushbu Taraqqiyot strategiyasida keltirilgan Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda – investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishdan iborat. Shuning uchun ham, xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda

tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatdosh mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiya, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyot real sektori atamasi ko'plab iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ob'ekti va predmeti sifatida o'rganilgan. Jumladan, ushbu atamaning ilk o'rganilganlik davri marjinalizm, monetarizm hamda marksizm nazariyalariga borib taqaladi. Marjinalist hamda monetaristlar fikriga muvofiq ishlab chiqarishgina pul yaratadi, ammo xizmat ko'rsatishning ham qiymat yaratishi olimlar nuqtai nazaridan chetda qoladi.

Keyinchalik ushbu sektorning faoliyati va tarkibi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etiladi.

Jumladan, filologiya fanlari doktori S.I.Ojegov real sektorning ta'riflovchi uchta asosiy ma'nosini keltiradi [2]:

- 1) haqiqatan ham mavjud, hayoliy emas;
- 2) haqiqatga mos keladigan, mumkin bo'lgan;
- 3) amaliy, tushunish va voqelikning asl shartlarini hisobga olgan holda.

V.N. Cherkovets yondashuviga ko'ra real sektorni YAIMni yaratishda qatnashishiga ko'ra tavsiflanadi [3]:

- 1) Savdo sanoat xizmatlarini ko'rsatishga kiritilganmi?
- 2) «Boshqa xizmatlar» nimani anglatadi, ular pul, fond va sug'urta bozorlari

instituti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni o'z ichiga oladimi? Ushbu savollarga javoblar xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy muomala turiga qarab guruhlash asosida «Iqtisodiyotning real sektori» tushunchasini aniqlashga yondashish orqali berilgan. Iqtisodiy xatti-harakatlar turi xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishga yo'naltiradigan sabablar va rag'batlantirishlar bilan belgilanadi. Iqtisodiy harakatlarning turlari bo'yicha guruhlash mamlakat iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini beradi. Xalq xo'jaligining sektori deganda aholining o'xshash iqtisodiy maqsadlari, funksiyalari va xulq-atvoriga ega bo'lgan aholining institutsional birliklari majmui tushuniladi.

O.Izryadnova tadqiqotlarida ham iqtisodiyotning real sektorini tahlil qilishda kreditlar bilan bog'liq xarajatlarning o'sishi, foyda va daromadning pasayishi, xalqaro moliyaning kirish imkoniyati kabi ko'rsatkichlardan foydalangan [4].

D.Tursunova o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda innovatsion va texnologik investitsiyalarni jalb qilish va ularning iqtisodiyotdagi rolini o'rganadi. U investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda innovatsion rivojlanishning muhimligini ta'kidlaydi [5].

Iqtisodchi-olimlardan A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiya


muhiti va uning moliyaviy asoslari masalasida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir [6].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar investitsiya muhitini yaxshilash va samarali investitsiyalarni jalb qilishning ko'plab jihatlarini o'rganishmoqda. Ular iqtisodiyotning rivojlanishi va diversifikatsiyasi uchun zarur bo'lgan investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynashmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning real sektori ulgurji va chakana savdo, energetika, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, sanoat ishlab-chiqarish, transport va logistika, neft va gaz tarmog'i, metallurgiya, tibbiyot va farmatsevtika, tog'-kon sanoati, telekommunikatsiya va informatsion texnologiyalar, turizm va mehmonxona biznesi, qishloq xo'jaligi singari yirik tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Quyidagi rasmda 2022 - 2024 yillar davomida iqtisodiyot tarmoqlarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonidagi o'zgarishlar keltirilgan:



1-rasm. Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (birlik) [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan chet el investitsiyalari ishtirokidagi real sektori korxonalarining iqtisodiy holati va istiqboldagi kutilmalari o'rganish yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra 2025-yil 1-yanvar holati uchun korxona tashkilotlarning tarmoqlar bo'yicha soni 12 355 ta bo'lib, ularning 5 332 tasi (43,2 foizi) savdo sohasida, 3 217 tasi (26% foizi) sanoat sohasida, 1 283 tasi (10,4 foizi) xizmatlar sohasida, 1 085 tasi (8,8 foizi) qurilish sohasida faoliyat yuritadi (1-rasm).

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan kuzatishingiz mumkin ki so'nggi ikki yil davomida deyarli barcha tarmoq korxonalari sonidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. 2025-yilga kelib 2022 yil holatiga nisbatan korxonalar sonida sanoat tarmog'i 25,9 % ga kamaygan. Korxonalar soni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 49,2 %, qurilish sohasida 14,6 %, xizmatlar sohasida 3,6 % kamayganligini ko'rish mumkin. Savdo sohasida esa 10,7 % ga, axborot va aloqa sohasida 39,5 % ko'paygani keltirilgan. Umumiy sonida 2022 yil holatiga nisbatan 2025-yil yanvar holatiga korxonalar soni 14 871 taga yoki 11,9 % ga ko'paygan. Savdo tarmoqlaridagi faoliyat yuritayotgan

korxonalar sonining ko'payishiga 2022-yildagi pandemiyadan keyingi davrdagi ishlab chiqarishning tezlashishi sababli talab sezilarli ravishda oshdi.

Iqtisodiyotning sektorlari faoliyati natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsuloti shakllanadi. Iqtisodiyotning real sektori tarmog'i esa yalpi ichki mahsulotni shakllantiruvchi asosiy ko'rsatgichlarini o'zida mujassam etadi. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo'shma korxonalari ham shu hisobga kiradi) tomonidan jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo'lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi.

Quyidagi jadvalda yalpi ichki mahsulotning shakllantirilishida iqtisodiyot tarmoqlarining foizdagi ulushi taqsimlangan. So'nggi 3 yilda real sektor tarmog'ining ulushi o'rtacha 80 % ni tashkil etib kelmoqda. Bu esa, real sektor korxonalarini yanada ko'paytirish, mavjudlarining faoliyatini takomillashtirish, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib borishni va ushbu tarmoq imkoniyatlardan keng foydalanishni taqozo etadi.

1-jadval

2022-2024- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot tarkibi (% da) [8]

№	Faoliyat turlari	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22,3	21,2	19,2
2	Sanoat	25,7	25,3	26,4
3	Xizmatlar	44,2	46,2	47,4
3.1	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,6	12,3	12,5
3.2	Tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,9	7,5	8,1

3.3	Boshqa xizmatlar	25,7	26,4	26,8
Yalpi ichki mahsulot		100	100	100

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha hisobda 75 % i real sektor tarmoqlariga to‘g‘ri keladi, jumladan, iqtisodiyotdagi sanoat soxasi 26,4 foizni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi soxalari esa 19,2 foizni tashkil etmoqda. Yalpi ichki mahsulotdagi real sektor tarmoqlarining katta o‘rin egallashi, bu sektorni o‘rni muhimligini, moliyalashtirish manbalarini ko‘paytirish kerakligini asoslaydi.

XULOSA

Iqtisodiyotning real sektorining asosini sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tashkil etadi va savdo faoliyati uning ajralmas qismi hisoblanadi. Garchi ishlab chiqarish sohasida yangi moddiy ne‘matlar yaratilsada (real sektorning yadrosi), hanuzgacha moddiy ishlab chiqarish bu iqtisodiy xulq-atvor turi bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlarni guruhlash emas, balki odamlarning

ehtiyojlarini qondirish vositasi bo‘lib, bu esa, o‘z navbatida zamonaviy bozor iqtisodiyotini tavsiflaydi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi mamlakatda moddiy ishlab chiqarish sohalari uchun yaratilgan huquqiy-me‘yoriy sharoit bilan uzviy bog‘liqdir. Ya‘ni, mahalliy va xorijiy investitsion mablag‘larni real sektorga jalb etish uchun investorlarga huquqiy kafolat berilishi va uning ijrosini davlat tomonidan kafolatlanishi lozim.

Umuman olganda, xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilish jarayoni, nafaqat iqtisodiy barqarorlik va o‘sish uchun, balki jamiyatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va global iqtisodiy tizimda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mamlakatlar o‘zining moliyaviy tizimini, huquqiy doirasini va iqtisodiy strategiyasini yaxshilash orqali xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga erishishlari lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy majlisga murojaatnomasi." // "Toshkent oqshomi" gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, 250-son;
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка. 18-е изд. М., 1986.
3. Черковец, В.Н. Размышления о прошлом и настоящем: Очерки политической экономики [Электронный ресурс] / В.Н. Черковец. - М.: Экономический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 2014. - 261 с. - ISBN 978-5-9988-0287-4 Режим доступа: <http://znanium.com/catalog/product/533835>.
4. Izryadnova, Olga, The Real Sector of the Economy: Factors and Trends in March 2015 (May 27, 2015). Russian Economic Developments. Moscow, 2015, #5, pp. 20-22. Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2611220> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2611220>.
5. D.Tursunova. "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati" nomli maqolasi. (11.08.2021-yil). <https://www.researchgate.net/>.
6. Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. - T.: Baktria press, 2015. - 584 b
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi- Korxonalar va tashkilotlarning faoliyatining umumiy tavsifi axborotnomasi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi- Yalpi ichki mahsulot axborotnomasi.
www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi rasmiy sayti.
www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.